

MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KREATIV

FIKRLASH IMKONIYATLARI

Qosimov Fayzullo Muhammadovich

BuxDPI professori

Ro'ziqulova Shaxnoza Toxirovna

BuxDPI magistranti

Annotatsiya:

Maqolada matematika darslarida o'quvchilarning kreativlik fikrlashlarini rivojlantirish imkoniyatlari, ta'limni faollashtirish usullari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning kreativlik fikr yuritish imkoniyatlaridan foydalanishning mahsuldorligi va natijaviyligi ko'rsatilgan.

Abstract: This article covers the topic "**Creativity opportunities in mathematics lessons and their structural basis**" and provides brief information about the organization of opportunities in this regard. Productivity and effectiveness of using creativity opportunities in elementary mathematics classes are shown.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, tarkibiy asoslar, ijodiy qobiliyat

Mamlakatning qudrati, salohiyati ilm fanning ravnaqiga bog'liq. Qaysi davlatda ilm-fanga e'tibor kuchli bo'lsa, u davlatda taraqqiyot baland bo'lishini tarix isbotlagan. Ilm-fanning rivoji etuk olimlarning mehnati samarasidir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev "Men doimo ziyoli, olim, ijodkor insonlar bilan suhbatlashishga intilaman va bunday muloqotlarni hamisha sog'inaman. Nega desangiz, olimlik Olloh nurini solgan ulug' bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga nur, ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson o'ziga beqiyos ma'naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi.", deb bejiz aytmadilar. [1]

Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon ildam qadam tashlayotgan mamlakatimizda kadrlar masalasi, yosh avlod tarbiyasi birinchi o'rindagi muhim masalalar qatorida turibdi. Zeroki, O'zbekiston ravnaqi kelajagi shu yoshlar, ya'ni kadrlar qo'lida ekan, jamiki e'tibor ularni hur fikrli bo'lishi, jahon ta'lim standartlariga mos kela oladigan ta'lim olishi buyuk kelajak uchun qo'yilayotgan

mustahkam poydevordir. Buning uchun esa avvalo ta'lim sifatini jahon andozalariga mos ravishda oshirish lozimdir. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslarida ijodiy ishlashga o'rgatish ham hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ijodkorlik - bu aqliy faoliyatning eng yuqori darajasi, mustaqillik, yangi, o'ziga xos narsalarni yaratish qobiliyati. Ijodiy imkoniyatlar nafaqat aqliy qobiliyatga, balki ma'lum belgilar xususiyatlariga ham bog'liq. Insonning ijodiy tafakkurining rivoj topishi bolalik davridan boshlanadi - bunda bola o'zidagi mavjud intellektni, "men"lik hissiyotini namoyish qila olishi, atrofdagilarning diqqatni o'ziga jalb etilishini namoyon etilishini istaydi. Har bir narsaga qiziquvchan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kutilmagan taqqoslashlar, g'ayrioddiy taxminlar bilan ajralib turadi. Taklif etilayotgan aqliy ishning yangiligini sezadi, o'ziga xos aqliy tashabbusni ishga soladi. Bolada ko'plab noma'lum narsalarni kashf etishga, turli xil faoliyat turlarida asl, nostandart yechimlarni izlashga to'g'ri keladi.

Kreativlik shaxsning sifati tarzida talqin qilinar ekan, bu atamaning lug'viy ma'nosiga e'tibor beraylik. Bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor ma'nolarini anglatadi. Yaratuvchanlik faqat Allohga xos sifat. Shu sababli kreativlik tushunchasini ijodkorlik ma'nosida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Kreativ tushunchalar va yondashuvlar dunyoning turli mintaqalarida insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga; jumladan, ular tabiiy, falsafa, san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi.[2] Shunday ekan, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy keladigan fikrlardan keskin farq qiladi. Bu bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya hisoblanib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishlariga imkon beradi. Dunyo miqyosidagi tashkilotlar va jamiyatlar innovatsion g'oyalar va kreativ fikrlashga nisbatan umumiy tashabbuskorlik deb qarab, yuzaga kelayotgan murakkabliklarni yengishda innovatsion g'oyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratmoqda [3].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan muhim masalalaridan biri o'quvchilarda kreativlikni shakllantirishdan iborat.

Matematika darslarida kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari:

1. Fikrning teranligi – ma'lum vaqt birligida vujudga keladigan g'oyalar soni;
2. Fikrning moslashuvchanligi - bir fikrdan boshqasiga o'tish qobiliyati.
3. Fikrning o'ziga xoslik - stimullarga nostandart tarzda javob berish qobiliyati.
4. Qiziquvchanlik, ziyraklik - qarama-qarshiliklar va noaniqliklarga sezgirlik, bir fikrdan boshqasiga tezda o'tishga tayyorlik.

5. Tez xulosa chiqarish qobiliyati - aniq fikr, keyinchalik uni sinchkovlik bilan tekshirish kerak.

6. Sarhisob - ijodkorlik natijasi, reaksiyalarning stimullardan mantiqiy mustaqilligi, muammolarni hal qilish, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati.

Matematika darslarida kreativlikni rivojlantirib, o'quvchilar turli yo'nalishlarda o'ylashni, muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishni, noodatiy vaziyatlarda yechim topishni, aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantiradilar. Iqtidorli shaxs qobiliyatning yana bir ko'rinishi - bu kreativ qobiliyat sanaladi. Kuzatuvchanlik, xotiraning mustahkamligi, obrazli tasavvur hosil qilish, ijodkorlik (kreativlik), mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, yangiliklar yaratishga intilish, izlanuvchanlik, o'z-o'zini tanqidiy baholash, fantaziyaga boylik, eng oddiy unsurlarni ham ilg'ay olish kabilar ijodiy qobiliyatga ega shaxsga xos sifatlardir.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish doimiy ravishda badiiy asarlarni o'qib borish, kino, teatr, musiqa, hunarmandchilik va tasviriy san'at namunalari bilan tanishish, asarlardan bahramand bo'lish, ularga nisbatan shaxsiy baho berish hamda ko'proq tabiat qo'ynida bo'lish asosida rivojlanib boradi. Matematika ta'limi jarayonida o'quvchi ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi vositalar sifatida o'quvchi tomonidan mustaqil o'quv topshiriqlarni tuzish, topshiriq yechimining ratsional variantini aniqlash, masalalarni turli usullarda yechish, eng qulay yechim yo'lini aniqlash va sharhlash, rebus va krasvordlar tuzishlarni qarash mumkin. Ijodkorlik (kreativlik) ijodiy qobiliyatga ega shaxs faoliyatining muhim jihati bo'lib, u avval mavjud bo'lmagan sifatiga ko'ra yangi sanaluvchi narsalarni yaratishni ifodalaydi. Ijodiy qobiliyat namoyon bo'lishi va natijasiga ko'ra betakror, o'ziga xoslik, shu bilan birga ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega faoliyat mazmunini aks ettiradi. Shaxsda ijodkorlik (kreativlik) sifatlari muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgan sharoitlardagina rivojlanadi. Masalan, tanqid erkinligi, ijodiy munozara, fikrlar almashinuvi va ular o'rtasidagi o'zaro kurash, ijodiy qobiliyat, iqtidorni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik-psixologik va falsafiy yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar shaxs tomonidan tashkil etiluvchi ijodiy faoliyat bir necha bosqichda kechishini asoslab bergan. Jumladan, 1924 yilda angliyalik olim G.Uolles mazkur jarayonning quyidagi to'rt bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tgan:

- 1) tayyorgarlik;
- 2) g'oyalarning tug'ilishi;
- 3) ularning to'la aks etishi;
- 4) tekshirib ko'rish (nazorat).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik fikrlashni shakllanishi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishlari, qo'yilgan muammoni hal etish yo'llarini topishlari, turli vaziyatlarda shaxsiy munosabatlarini bildirishlari kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 330-335.
2. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
3. ADIZOVA, Nodira. "TOPONIMLAR TARKIBIDA TOPOASOS, TOPOFORMANT HAMDA INDIKATOR TUSHUNCHALARI (BUXORO TUMANI MISOLIDA)." *EDAGOGIK AHORAT*: 47.
4. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2022): 52-53.
5. Adizova N. B. The Role Of Ethnotoponyms In The Bukhara District Microtopony //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 131-134.
6. Adizova N. B. THE ROLE OF ETHNOTOPONYM IN THE TOPONYM OF BUKHARA DISTRICT //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – C. 414-416.
7. Адизова Н. Микропонимы (Бухара вилояти мисоли) //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/С. – С. 128-132.
8. Qosimov F. M., Qosimova M. M. MATEMATIKADAN IJODIY O 'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 206-211.
9. Qosimov M. F., Kasimov F. F. Methods of teaching to solve non-standard problems //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
10. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Хасимова М. Х. Специфические принципы построения системы учебных задач //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2016. – №. 50-2. – С. 58-62.

11. Касимов Ф. М., Касимова М. М., Умарова Г. У. Учебные задачи как средство активизации учебной деятельности учащихся на уроках математики //Обучение и воспитание: методики и практика. – 2015. – №. 19. – С. 54-60.
12. Rayxonov S., Qosimov F., Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o'rgatish. – 2017.
13. Muhammedovich Q. F., Muhammedovna Q. M. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 358-362.
14. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
15. QOSIMOV F. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
16. Fayzullayevich F. K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – T. 6. – №. 06. – С. 107-111.
17. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
18. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS'SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 2. – №. 2.
19. Saidova M. J. DIRECTIONS AND CONTENT OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING //Conference Zone. – 2022. – С. 7-15.
20. Jonpo'latovna S. M. et al. 2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING O 'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 63-65.
21. Saidova M. J. MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 43-46.